

**TOSHKENT DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/30.01.2020.Ped.26.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

TOSHKENT DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI

XASANOVA DILBAR KARIMDJONOVNA

**KOMPETENSIYAVIY YONDASHUV ASOSIDA TALABALARNING
KASBIY SIFATLARINI RIVOJLANTIRISH
(Dinshunoslik ta'lim yo'nalishi misolida)**

13.00.01 – Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi

**PEDAGOGIKA FANLARI BO'YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Toshkent – 2023

**Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по
педагогическим наукам**

**Contents of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD) on
pedagogical sciences**

Xasanova Dilbar Karimdjonovna

Kompetensiyaviy yondashuv asosida talabalarning kasbiy sifatlarini
rivojlantirish (Dinshunoslik ta'lim yo'nalishi misolida)..... 3

Хасанова Дилбар Каримджоновна

Развитие профессиональных качеств студентов на основе
компетентностного подхода (на примере направления образования
Религиоведение)..... 21

Khasanova Dilbar Karimdjonovna

Development of professional qualities of students based on the compe-
tency based approach (in the example of religious studies)..... 41

E'lon qilingan ishlar ro'yxati

Список опубликованных работ
List of published works 45

**TOSHKENT DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/30.01.2020.Ped.26.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

TOSHKENT DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI

XASANOVA DILBAR KARIMDJONOVNA

**KOMPETENSIYAVIY YONDASHUV ASOSIDA TALABALARNING
KASBIY SIFATLARINI RIVOJLANTIRISH
(Dinshunoslik ta'lim yo'nalishi misolida)**

13.00.01 – Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi

**PEDAGOGIKA FANLARI BO'YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Toshkent – 2023

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi Oliy attestatsiya komissiyasida B2021.4.PhD/Ped2756 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Toshkent davlat pedagogika universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) veb-sahifaning (www.tdpu.uz) hamda «ZiyoNet» axborot-ta'lim portalida (www.ziynet.uz) manzillariga joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Mirqosimova Marg'uba Mirqobilovna
pedagogika fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar:

Karlibayeva Guljaxan Yermekbayevna
pedagogika fanlari doktori, professor

Niyozmetova Roza Xasanovna
pedagogika fanlari doktori, professor

Yetakchi tashkilot

Namangan davlat universiteti

Dissertatsiya himoyasi Toshkent davlat pedagogika universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/30.01.2020.Ped.26.01 raqamli Ilmiy kengashning 2023-yil «___» _____ soat _____dagi majlisida bo'lib o'tadi (manzil: 100185, Toshkent shahri, Chilonzor tumani, Bunyodkor ko'chasi, 27-uy. Tel.: (99871) 276-82-32; faks: (99871) 276-76-51; ye-mail: tdpu_kengash@edu.uz).

Dissertatsiya bilan Toshkent davlat pedagogika universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (_____ raqami bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 100185, Toshkent shahri, Chilonzor tumani, Bunyodkor ko'chasi, 27-uy. Tel.: (99871) 276-75-87; faks: (99871) 276-76-51.

Dissertatsiya avtoreferati 2023-yil «___» _____ kuni tarqatildi.
(2023-yil «___» _____ da _____ - raqamli reestr bayonnomasi).

B.S. Abdullayeva
Ilmiy darajalar beruvchi
ilmiy kengash raisi, ped.f.d., prof.

R.G.Isyanov
Ilmiy darajalar beruvchi
Ilmiy kengash ilmiy kotibi, p.f.n., dotsent

S.S.Bulatov
Ilmiy darajalar beruvchi
Ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar
raisi, p.f.d., professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahon ta'lim tizimida bo'lajak dinshunoslarning kasbiy kompetensiyalarini takomillashtirishning innovatsion texnologiyalari tatbiq etilmoqda. Central Arkansas (AQSH) universitetining Dinshunoslik ta'lim yo'nalishi talabalarining tanqidiy fikrlashi, o'qish va yozish ko'nikmalarini rivojlantirishga yo'naltirilgan dasturlari, Scottish Charitable Incorporated Organization (SCIO) tomonidan haftalik podkastlar va esselar, Queens University (Kanada) tomonidan talabalarining ijodkorligini qo'llab-quvvatlaydigan amaliy loyihalari kabi tizimli ishlar olib borilmoqda.

Jahon ta'lim va ilmiy-tadqiqot muassasalarida dinshunoslarning kasbiy mahoratini oshirish modellari, diniy ta'lim sifati va mazmunini takomillashtirish, dinshunoslar tomonidan amalga oshirilgan tadqiqotlarning ilmiy darajasi, ob'yektivligi va sifati bilan birga dinshunoslarning shaxsiy va kasbiy fazilatlarini takomillashtirish, dinlarning asl gumanitar mohiyatini, ahamiyatini jahon hamjamiyatiga yetkazish, dinshunoslarning kasbiy sifatlarini takomillashtirish bo'yicha ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda.

So'nggi yillarda respublikamizda diniy va dunyoviy bilimlar uyg'unligini rivojlantirish, diniy-ma'rifiy sohada malakali kadrlarni tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirishning yaxlit tizimini rivojlantirishning me'yoriy asoslari yaratilmoqda. "Jamiyatda milliy va diniy qadriyatlarimizga yot bo'lgan g'oyalarga nisbatan toqatsizlik muhitini shakllantirish; diniy va dunyoviy bilimlar uyg'unligini rivojlantirish asosida ta'lim sifatini oshirish, diniy-ma'rifiy sohada malakali kadrlarni tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirishning yaxlit tizimini yaratish" ustuvor vazifalar sifatida belgilandi¹. Natijada, diniy-ma'rifiy sohada malakali kadrlarni tayyorlash, dinning asl mohiyatini aholi, ayniqsa yoshlar ongiga singdirish imkoniyatlari kengaytiriladi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son "2022-2026-yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida", 2018-yil 16-apreldagi PF-5416-son "Diniy-ma'rifiy soha faoliyatini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" farmonlari, 2021-yil 19-maydagi PQ-5117-son "O'zbekiston Respublikasida xorijiy tillarni o'rganishni ommalashtirish faoliyatini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to'g'risida", 2018-yil 5-iyundagi PQ-3775-son "Oliy ta'lim muassasalarida ta'lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta'minlash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" qarori, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 19-maydagi 312-son "Xorijiy tillarni o'rganishni ommalashtirishni samarali tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida" qarori va mazkur faoliyatga doir boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarning ijrosiga ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni. Diniy-ma'rifiy soha faoliyatini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida. PF-5416-son. 2018-yil 16-aprel. Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 18.04.2018-y., 06/18/5416/1079-son.

yo‘nalishlariga bog‘liqligi. Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalarni rivojlantirishning “Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma‘naviy-ma‘rifiy rivojlantirishda innovatsion g‘oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo‘llari” ustuvor yo‘nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. B.X.Xodjayev, M.M.Qodirov, Q.A.Niyozov, A.J.Xurramov, A.A.Karimov, M.D.Pardayeva oliy ta‘lim muassalarida kompetensiyaviy yondashuv asosida pedagogik jarayonlar samaradorligini oshirish; U.I.Inoyatov, N.A.Muslimov, O.A.Qo‘ysinov, N.N.Karimova, X.F.Maksudova, D.A.Shayzakova, M.A.Eshmirzayeva, Y.R.Najmiddinova kasbiy sifatlar va kasbiy kompetentlik; J.J.Jalolov, L.T.Ahmedova, G.X.Bakiyeva, M.X.Gulyamova filologiya va tillarni o‘qitish metodikasini takomillashtirish; D.U.Qalandarova, K.S.Kamilov, M.Z.Abdullayeva, S.A.Saidova va boshq. dinshunoslik sohasi rivojlanishiga doir tadqiqotlar olib borgan.

Mustaqil Davlatlar Hamdo‘stligi mamlakatlarida kompetensiyaviy yondashuvni takomillashtirish bo‘yicha I.A.Zimnyaya, A.V.Xutorskoy, N.Xomskiy, A.A.Derkach, V.A.Bolotov, V.D.Shchadrikov, V.A.Adolf, A.T.Makulova, G.M.Alimzhanova, Z.M.Bekturganova, V.I.Baydenko, Yu.G.Tatur, A.A.Verbiskiy, E.F.Zeer, V.V.Serikov, O.V.Fokina, A.A.Kolupaev, A.A.Yarovenko, A.A.Guseva, L.B.Shneyder, A.A.Cheremisina, I.A.Chebannaya, N.N.Manyuko, M.D.Ilyazova, M.I.Lukyanova va bosh. ilmiy izlanishlar olib borgan.

Kompetensiyaviy yondashuvga asoslanib o‘qitish xususiyatlarini Ch.Flowers, Falender, Kouwenhoven, E.E.Lawler, Kafyulilo, HakiElimu, J.A.Bowden, G.N.Masters, D.E.Brolin, F.Mojab, B.R.Škrinjarić, V.M.Arora, J.K.Johnson, D.O.Meltzer, Shah, R.Richards, J.C.Voorhees, W.Sudsomboon, W.Spady kabi xorijiy mamlakatlar olimlari tadqiq etgan.

Dissertatsiya mavzusining dissertatsiya bajarilgan oliy ta‘lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti Toshkent davlat pedagogika universiteti ilmiy tadqiqot rejasining PZ-20170923121 raqamli “Ta‘lim muassasalarida hamkorlik asosida pedagogik faoliyatni rivojlantirish” nomli amaliy loyihasi doirasida bajarilgan (2017-2020-yy).

Tadqiqotning maqsadi kompetensiyaviy yondashuv asosida oliy ta‘lim muassasalarining Dinshunoslik ta‘lim yo‘nalishi talabalarida kasbiy sifatlarini rivojlantirish bo‘yicha tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

kredit-modul tizimida ta‘lim olayotgan Dinshunoslik ta‘lim yo‘nalishi talabalarining kasbiy sifatlarini rivojlantirish jarayonini takomillashtirish imkoniyatlarini aniqlashtirish;

bo‘lajak dinshunoslarning kasbiy sifatlarini rivojlantirish jarayoni samaradorligini takomillashtirish;

Dinshunoslik ta‘lim yo‘nalishi talabalarining kasbiy sifatlarini xorijiy til ta‘limi jarayonida kompetensiyaviy yondashuv asosida rivojlantirish modelini takomillashtirish;

Dinshunoslik yo‘nalishi talabalarining kasbiy sifatlarini rivojlantirish mezonlarini takomillashtirish.

Tadqiqotning ob'yekti sifatida oliy ta'lim muassasalari talabalarining kasbiy sifatlarini kompetensiyaviy yondashuv asosida rivojlantirish jarayoni belgilangan bo'lib, tajriba-sinovga O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi, Buxoro davlat universiteti hamda Termiz davlat universitetining 224 nafar 1-2-bosqich talabalari jalb qilindi.

Tadqiqotning predmetini oliy ta'lim muassasalari Dinshunoslik ta'lim yo'nalishi talabalarining kasbiy sifatlarini kompetensiyaviy yondashuv asosida rivojlantirish mazmuni, metodlari va vositalari tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqotda mavzuga doir falsafiy, sotsiologik, psixologik va pedagogik adabiyotlarni qiyosiy o'rganish va tahlil qilish, ijtimoiy-pedagogik (suhbat, kuzatish, tashxislash, so'rovnoma, test), pedagogik tajriba-sinov, natijalarini matematik va statistik qayta ishlash metodlaridan foydalanildi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

talabalarining kasbiy sifatlarini rivojlantirish jarayoni milliy qadriyatlar, urf-odatlar va diniy-ma'rifiy dunyoqarash tamoyillariga mos ravishda dinshunoslikka oid terminlar semantikasini qiyosiy tahlil qilish hamda shaxsga yo'naltirilgan individual ta'lim istiqbolli maqsadlarini bosqichma-bosqich insonparvarlashtirishga ustuvorlik berish asosida takomillashtirilgan;

talabalarda kasbiy sifatlarini rivojlantirish samaradorligi didaktik muhitning aksiologik-tasniflovchi, mazmunli-texnologik funksiyalar idientikligini tahliliy aniqlash, hodisalarga nisbatan o'z shaxsiy fikrlariga ega bo'lish barqarorligini ta'minlashga qaratilgan dinning ezgulik mohiyatini anglash hamda tolerant munosabat va hamdardlik tuyg'usini izchil shakllantirish asosida takomillashtirilgan;

talabalarining kasbiy sifatlarini rivojlantirish modeli shaxsga yo'naltirilgan kontentga asoslangan interfaol-demonstratsion o'yinlarni jamoa bo'lib ishlash va tanqidiy fikrlashga ustuvorlik berish, muammoning prototip yechimini ishlab chiqish hamda ijodiy va amaliy harakatlar yaxlitligini barqaror ta'minlash asosida takomillashtirilgan;

talabalarining kasbiy sifatlarini rivojlantirish mezonlari interaktiv mashqlarni samarali o'zlashtirish ko'rsatkichlariga dinamik ta'sir ko'rsatishga qaratilgan prezentatsiyaviy nutq madaniyati, autentik materiallar bilan ishlash mahorati, tilning madaniyatlararo va lingvomadaniy jihatini mustaqil egallay olish ko'nikmalarini rivojlantirishning tipik indikatorlarini o'zaro muvofiqlashtirish asosida takomillashtirilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

Dinshunoslik yo'nalishi 3-bosqich talabalari uchun kompetensiyaviy yondashuv asosida "English course manual (for year 3 students of Religious Studies direction)" hamda Islom tarixi va manbashunosligi yo'nalishi 1-bosqich talabalari uchun "English Course Book" (for the students of History of Islam and source studies specialization) o'quv qo'llanmalari yaratilgan;

Islomshunoslik fakultetining Dinshunoslik yo'nalishi 1-bosqich talabalari uchun "Sohaga oid xorijiy til" ishchi o'quv dasturi va o'quv-uslubiy majmuasi ishlab chiqilgan;

chet tillarini o'qitish jarayonida oliy ta'lim muassasasi talabalarining kasbiy sifatlarini bosqichma-bosqich rivojlantirishga yo'naltirilgan va tavsiya etilgan mavzu nomlari, rivojlanishi kutilayotgan kasbiy sifatlar, yondashuv va metodlar, shakl va

vositalar, fanlararo integratsiya, til aspektlari va ko'nikmalari, mustaqil o'qish uchun topshiriqlarni o'z ichiga olgan o'quv-metodik ta'minot ishlab chiqilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchligi qo'llangan yondashuv, usullar va nazariy ma'lumotlarning rasmiy manbalardan olingani, belgilangan maqsad va vazifalarga mos tadqiqot usullaridan foydalanilgani, kasbiy sifatlarni rivojlantirish muammosi tahlil qilingani va ishlab chiqilgan didaktik model OTMLar amaliyotida tatbiq etilgani, tadqiqot natijalari matematik statistik usullardan foydalanib tahlil qilingani va umumlashtirilgani va ularning vakolatli tashkilotlar tomonidan tasdiqlangani bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati Dinshunoslik yo'nalishi talabalarining kasbiy sifatlarini bosqichma-bosqich rivojlantirish modeli, kasbiy kompetensiyalar tuzilmasi, kasbiy-metodik kompetensiyaning kommunikativ, tashkiliy, refleksiv, motivatsion komponentlari takomillashtirilgani bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati oliy ta'lim muassasalari "Dinshunoslik" yo'nalishi talabalarining kasbiy sifatlarini xorijiy til o'qitish jarayonida rivojlantirishga yo'naltirilgan mashqlar tizimi, o'quv qo'llanma, o'quv dasturlari yaratilgani; kasbiy kompetentlikni rivojlantirishning metodik ta'minotdan foydalanish bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqilgani bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. "Kompetensiyaviy yondashuv asosida talabalarining kasbiy sifatlarini rivojlantirish (Dinshunoslik ta'lim yo'nalishi misolida)" mavzusida olib borilgan ilmiy tadqiqot natijalari asosida:

talabalarining kasbiy sifatlarini rivojlantirish jarayonini milliy qadriyatlar, urf-odatlar va diniy-ma'rifiy dunyoqarash tamoyillariga mos ravishda dinshunoslikka oid terminlar semantikasini qiyosiy tahlil qilish hamda shaxsga yo'naltirilgan individual ta'lim istiqbolli maqsadlarini bosqichma-bosqich insonparvarlashtirishga ustuvorlik berish asosida takomillashtirishga oid takliflar "English course manual (for year 3 studens of Religious Studies direction)" nomli o'quv qo'llanma mazmuniga singdirilgan (O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining 2020-yil 28-dekabrda 676-sonli buyrug'iga asosan berilgan 676-218 raqamli nashr ruxsatnomasi). Natijada, talabalarining kasbiy sifatlarini oshirishning didaktik imkoniyatlari kengaytirilgan;

talabalarda kasbiy sifatlarini rivojlantirish samaradorligini didaktik modelning aksiologik-tasniflovchi, mazmunli-texnologik funksiyalar idientivligini tahliliy aniqlash, hodisalarga nisbatan o'z shaxsiy fikrlariga ega bo'lish barqarorligini ta'minlashga qaratilgan dinning ezgulik mohiyatini anglash hamda tolerant munosabat va hamdardlik tuyg'usini izchil shakllantirish asosida takomillashtirishga oid tavsiyalar "English Course Book (for the studens of History of Islam and source studies specialization)" o'quv qo'llanmasi mazmuniga singdirilgan (O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining 2022-yil 9-sentyabrdagi 320-sonli buyrug'iga asosan berilgan 320-0130 raqamli nashr ruxsatnomasi). Natijada, shaxsga yo'naltirilgan individual ta'limni umumta'limiy maqsadlarga bog'lash asosida takomillashtirish imkoni yaratilgan;

talabalarining kasbiy sifatlarini rivojlantirish modeli shaxsga yo'naltirilgan kontentga asoslangan interfaol-demonstratsion o'yinlarni jamoa bo'lib ishlash va

tanqidiy fikrlashga ustuvorlik berish, muammoning prototip yechimini ishlab chiqish hamda ijodiy va amaliy harakatlar yaxlitligini barqaror ta'minlash asosida takomillashtirishga oid tavsiyalar "English course manual (for year 3 studens of Religious Studies direction)" nomli o'quv qo'llanma mazmuniga singdirilgan (O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining 2020-yil 28-dekabrda 676-sonli buyrug'iga asosan berilgan 676-218 raqamli nashr ruxsatnomasi). Natijada, talabalarda kasbiy sifatlarini rivojlantirishni didaktik imkoniyatlarini kengaytirishga sharoit yaratilgan;

talabalarining kasbiy sifatlarini rivojlantirish mezonlari interaktiv mashqlarni samarali o'zlashtirish ko'rsatkichlariga dinamik ta'sir ko'rsatishga qaratilgan prezentatsiyaviy nutq madaniyati, autentik materiallar bilan ishlash mahorati, tilning madaniyatlararo va lingvomadaniy jihatini mustaqil egallay olish ko'nikmalarini rivojlantirishning tipik indikatorlarini o'zaro muvofiqlashtirish asosida takomillashtirishga oid tavsiyalar "English Course Book" (for the studens of History of Islam and source studies specialization) o'quv qo'llanmasi mazmuniga singdirilgan (O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rtamaxsus ta'lim vazirligining 2022-yil 9-sentyabrda 320-sonli buyrug'iga asosan berilgan 320-0130 raqamli nashr ruxsatnomasi). Natijada, talabalarda kasbiy sifatlarining rivojlantirish samaradorligini aniqlashga qaratilgan samarali mezonlarni aniqlash imkoni yaratilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Tadqiqot natijalari 2 ta respublika va 2 ta xalqaro ilmiy-amaliy anjumanda muhokamadan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinishi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha 13 ta ilmiy ish, jumladan, O'zbekiston Respublikasi Oliy Attestatsiyasi Kommissiyasi doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish uchun tavsiya etgan ilmiy nashrlarda 4 ta maqola, shundan, 3 tasi respublika, 1 tasi xorijiy jurnallarda chop etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, uchta bob, xulosa, 127 sahifa matn, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi asoslangan, muammoning o'rganilganlik darajasi bayon etilgan, tadqiqotning maqsadi va vazifalari, ob'ekti va predmeti belgilangan, tadqiqot ishining fan va texnologiyalarni rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlariga mosligi ko'rsatilgan hamda tadqiqotning ilmiy yangiligi, natijalarning ishonchliligi, nazariy va amaliy ahamiyati, natijalarning amaliyotga joriy etilishi, e'lon qilinganligi, ishning tuzilishi borasidagi ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning "**Kompetensiyaviy yondashuv asosida talabalarining kasbiy sifatlarini rivojlantirishning nazariy-metodologik asoslari**" deb nomlangan birinchi bobida bolajak dinshunos talabalarining kasbiy sifatlarini kompetensiyaviy yondashuv asosida rivojlantirish pedagogik zaruriyat sifatida asoslangan, "kompetensiya" so'zining etimologiyasi, kompetensiyaviy yondashuvga asoslanib ta'lim berishning xarakteristikasi, mahalliy va xorijiy olimlarning tajribalari, talabalarda kasbiy sifatlarini rivojlantirishning ahamiyati, "kompetensiyaviy

yondashuv” tushunchasining mohiyati hamda muammoning nazariya va amaliyotdagi holati bayon etilgan.

Biz tadqiqotlar jarayonida bo‘lajak dinshunoslarning kasbiy kompetensiyalariga qo‘yilgan malaka talablarini belgilashda “Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi”da belgilab berilgan vazifalar, xususan, “ta’lim, fan va ishlab chiqarish samarali integratsiyalashuvini ta’minlash, tayyorlanayotgan kadrlarning miqdori va sifatiga nisbatan davlatning talablarini, shuningdek, nodavlat tuzilmalari, korxonalar va tashkilotlarning buyurtmalarini shakllantirishning mexanizmlarini ishlab chiqish” hamda “yangi pedagogik va axborot texnologiyalari, tayyorgarlikning modul tizimidan foydalangan holda talabalarni o‘qitishni jadallashtirish”ni asos qilib oldik.

Shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 20-apreldagi “Oliy ta’lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-2909-son qarori bilan tasdiqlangan “2017-2021-yillarda Oliy ta’lim tizimini kompleks rivojlantirish chora-tadbirlar Dasturi ijrosini ta’minlash bo‘yicha Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi Dasturi” tadqiqotimiz uchun asos bo‘lib xizmat qiladi.

O‘zbekiston – ko‘p konfessiyali mamlakatlardan biri hisoblanib, unda istiqomat qiladigan millat va elatlar 16 konfessiyaga amal qiladi. Adliya vazirligi va uning hududiy bo‘linmalari tomonidan jami 2 ming 318 ta diniy, jumladan 2 ming 127 ta islomiy, 191 ta noislomiy tashkilot ro‘yxatdan o‘tkazilgan. Bulardan 2099 tasini masjid va 184 tasini cherkovlar tashkil etadi. Ushbu diniy tashkilotlarda faoliyat yuritadigan dinshunoslarning asosiy vazifasi aholini o‘zaro tinch, totuv va hamkor faoliyat ko‘rsatishi, Vatanimiz ravnaqi, yurtimiz tinchligini ta’minlashga xizmat qilishdan iborat. Bundan tashqari, bo‘lajak dinshunoslar, xorijiy tillardan birida kasbiy faoliyatiga oid hujjatlar va ishlar mohiyatini tushunishi, gumanitar fanlar bo‘yicha kasbiy faoliyati doirasida zaruriy bilimlarga ega bo‘lishi hamda ulardan kasbiy faoliyatida zamonaviy ilmiy asosda foydalana bilish kabi umumiy kompetensiyalarga ega bo‘lishi, shu bilan birga, “din” tushunchasi, dinni o‘rganishga yondashuvlar, uning sohalari haqida bilish; islomshunoslik asoslari, Qur‘onshunoslik, Qur‘on ilmlarining shakllanishi va hozirgi kundagi holati, hadisshunoslik va ushbu sohaga oid zamonaviy tadqiqotlar. aqidaviy va fikhiy mazhablar, hanafiylik-Moturidiylik ta’limoti asoslarini bilish; diniy manbalarning tasniflashi, manbalar bilan tadqiqot olib borish, dinlarning muqaddas manbalari: Aligrafit, Tanax, Tripitaka, Bibliya, Qur‘ondagi mavzular bayonini qiyoslash ko‘nikmasiga ega bo‘lish singari kasbiy kompetensiya va malakaga ega bo‘lishlari kerak.

“Kompetensiya” tushunchasiga 1950- va 1960-yillarda tilshunoslar va bosqqa sohalar tadqiqotchilari tomonidan struktural va kognitiv tendensiya sifatida e’tibor qaratilishi boshlangan, hamda 1970-yillar boshlariga kelib, Dell Xaymes va Polston tomonidan unga konstruksiya sifatida aniq ta’rif berilgan. Ba’zi tadqiqotchilar Xomskiyning “kompetensiya” atamasining muallifi deb bilishadi. Ammo Xomskiyning tilshunoslik sohasiga qo‘shgan hissasi va uning ushbu atamani qo‘llashi boshqa tadqiqotchilarnikidan farq qiladi. Ta’lim sohasida masalan, Messik kompetensiyani shaxsning bir mavzuda nimani bilishi va nima qilishi mumkinligi sifatida ta’riflaydi.

Merriam-Webster lug‘atida “kompetensiya” so‘ziga: “to compete” (lotincha “competere”) so‘zidan kelib chiqqan bo‘lib, tilda birinchi marta 1640-yilda

ishlatilgan, “qobiliyat”, “layoqatlilik”, “mohirlik” deb ta’rif beriladi. “O‘zbek tilining izohli lug‘ati”da esa: kompetensiya lotincha “competere” layoqatli, munosib bo‘lmoq”, deya ta’riflanadi.

B.Xodjajev pedagogikaning eng muhim kategoriyalari sifatida shaxs, tarbiya, ta’lim (o‘qitish, o‘qish), bilim, ko‘nikma, malaka, kompetensiya, ma’lumot, shakllantirish, rivojlantirishni sanab o‘tadi.

Kompetensiyaviy yondashuvning til haqidagi fanga qo‘llanishiga to‘xtaladigan bo‘lsak, u hayotiy ko‘nikmalarni shakllantirish va o‘rganilgan tilga oid bilim va shakllantirilgan ko‘nikmalarni notanish vaziyatlarda qo‘llay olishdir. Bu yondashuv, asosan, yoshi katta til o‘rganuvchilar uchun mo‘ljallangan bo‘lib, ular o‘zlari o‘zlashtirayotgan ko‘nikmalar amaliy yordami tegishini tushunishi lozim bo‘ladi. Ilmiy adabiyotlar tahlili ko‘rsatadiki, bu yondashuv birinchi narta Amerika Qo‘shma Shtatlarida immigrantlarga bir vaqtning o‘zida ham ingliz tilini o‘qitish, ham hayotiy tajriba orttirish maqsadida rivojlantirilgan bo‘lib, uning asosi amerika psixologiyasining yetakchi oqimlaridan biri bexiviorizmga borib taqaladi. Ushbu yondashuvning o‘ziga xosligi shundan iboratki, unda til o‘rganuvchilarning talabi va ehtiyoji ustuvor etib belgilanadi. Uning talabidan kelib chiqib grammatika va leksika tanlanadi. Til o‘rganuvchining kontekstdan kelib chiqib yondashuvi, tarjima esa faqatgina aloqa vositasi sifatida ishlatilishini talab qiladigan bu yondashuv, asosan, autentik materiallar hamda amaliy mashqlar bilan olib boriladi. Kommunikativ yondashuv singari kompetent yondashuvda ham chet tilida turistlardan intervyu olish, o‘z sayohati haqida elektron kundalik (blog) yozish yoki o‘quv platformalarida onlayn mavzu muhokamasini chet tilida olib borish kabi o‘quv xonasidan tashqarida amalga oshiriladigan mashg‘ulotlar kuzatiladi.

Q.A.Niyozovning fikriga ko‘ra, kompetensiyaviy yondashuv asosida ta’lim olgan talabalardan mustaqil fikrlash, muayyan vaziyatlarda o‘z pozitsiyani ko‘rsata olish, liderlik qobiliyati shakllangan, axborot-texnologiya resurslaridan foydalanib, tashabbus ko‘rsatadigan va umummadaniy ko‘nikmalari shakllangan kasbiy kompetent kadrlar yetishib chiqadi.

Dissertatsiyaning **“Kompetensiyaviy yondashuv asosida talabalarda kasbiy sifatlarni rivojlantirishning pedagogik asoslari”** deb nomlangan ikkinchi bobida chet tillarni o‘qitish jarayonida talabalarning kasbiy sifatlarini takomillashtirish samaradorligining pedagogik shart-sharoitlari, talabalarda kasbiy sifatlarni rivojlantirish tamoyillari, komponentlari va yondashuvlari o‘rganilgan hamda ushbu sifatlarni rivojlantirishga xizmat qiladigan innovatsion pedagogik texnologiyalar tahlil qilingan. Shuningdek, talabalarning kasbiy sifatlarini rivojlantirish jarayoni modeli va modelning tarkibiy qismlari izohi keltirilgan.

M.Qodirovning fikricha, kasbiy sifatlarni – shaxsning muayyan sohadagi bilim, ko‘nikma va malakalari majmui, mehnat faoliyatida o‘z qobiliyatini sifatli va samarali amalga tatbiq etish imkoniyatidir.

Kasbiy sifatlarni tadqiqoti borasida ilmiy ishlar olib borgan jahon va mahalliy olimlarning tahliliga ko‘ra, ular turli turkumlarga bo‘linadi. N.V.Kuzmina bo‘lajak pedagogning kasbiy faoliyat tuzilmasini besh turga (gnostik, loyihalash, tashkilotchilik, kommunikativ, konstruktiv), Angliya Durham Universiteti falsafa

doktori Isaac Soon esa dinshunoslik kasbiy sifatlarini to'rt turkumga (psixologik, falsafiy, filologik va sotsiologik), C.R.Zohidova esa bo'lajak o'qituvchilarni kasbiy ijtimoiylashtirish modelini yaratishda kasbiy sifatning uch xil (mutaxassis uchun – umumiy; aniq mutaxassislik uchun – xususiy; aniq pedagogik faoliyat turi uchun – shaxsiy) bo'lishini ta'kidlaydi.

Biz tadqiqotlarimiz natijasida, yuqorida keltirilgan ma'lumotlarga asoslanib, bo'lajak dinshunoslarning kasbiy sifatlarini mazmun jihatidan tasniflab, ularni to'rt kategoriyaga bo'lib tahlil qildik (1-rasm).

| ishchanlik | tadqiqotchilik | axborot kommunikativ | insonparvarlik |
|---|--|--|---|
| <ul style="list-style-type: none"> • sinchkov • tashkilotchi • g'ayratli • mustaqil fikr bildirish olish • moslashuvchanlik • Mas'uliyatlilik | <ul style="list-style-type: none"> • tadqiqot olib borish • analitik tahlil qila oladi • lingvistik mahoratga ega | <ul style="list-style-type: none"> • texnik jihatdan kompetent • Internet tarmog'i resurslaridan to'g'ri foydalanuvchi | <ul style="list-style-type: none"> • Insonparvarlikka yo'nalganlik • tolerant • rahmdillilik • samimiylik • boshqalarni eshita olish |

1-rasm. Bo'lajak dinshunoslarning kasbiy sifatleri tasnifi

Yuqorida tasniflangan kasbiy sifatleri rivojlantirish uchun kompetensiyaviy yondashuvga asoslanib dars olib borish, quyidagi maxsus bilim va ko'nikma, talabaning darsdagi ishtiroki bo'yicha aniq kriteriy, shaxsga yo'naltirilgan individual yondashuv, o'quv motivatsiyasi kabi komponentleri o'z ichiga olgan tizimni yo'lga qo'yish talab etiladi.

I.A.Lerner ta'riflagan didaktik modelning aksiologik, tasniflovchi, mazmunli, texnologik va natijaviy funksiyalarini bajaruvchi, modellarga oid tahlillarga asoslangan hamda dinshunoslarning kasbiy faoliyatiga qo'yilgan malaka talablarini amalga oshirishda yordamlashuvchi didaktik modeli ishlab chiqildi. Mazkur modelga xorijiy (ingliz) til materialleri asosida kompetensiyaviy yondashuv taqdim etadigan metodlar, usullar va vositalar negizida qurilib, unda xorijiy til o'qituvchisi rahbarligida hamda zamonaviy innovatsion metodlar bilan bog'liq ta'lim shakllari asos qilib olindi (2- rasm).

Modelning ishlash jarayoni to'rt: konseptual (tadqiqotning maqsad va vazifalari), invariant (kasbiy sifatleri rivojlanishiga ko'maklashuvchi yondashuv, texnologiya va usullar), mazmunli (metodlar va didaktik ta'minot), natijaviy (baholash darajalri va mezonlari) bosqichda amalga oshiriladi.

Talab etilayotgan tizimni modellashtirish quyidagi bloklar va ularning komponentleri bajarilishi ko'zda tutildi:

konseptual blok ijtimoiy-normativ, maqsadli va nazariy-uslubiy komponentdan tashkil topgan.

Ijtimoiy buyurtma komponenti jamiyatning ijtimoiy tartibi va buyurtmachining talabi bilan belgilandi. Berilgan tartib, bir tomondan, bo'lajak

dinshunoslarning zamonaviy raqobatbardosh kadr bo'lib yetishishiga ko'maklashsa, ikkinchi tomondan, dinshunoslarga mehnat bozoridagi talab va taklifdan kelib chiqadi.



2-rasm. Talabalarning kasbiy sifatlarni rivojlantirishning didaktik modeli

Maqsadli komponent bitiruvchilardan umumiy kasbiy faoliyat talablarida tashkiliy-boshqaruv va xizmat ko'rsatish (axborot texnologiyalaridan foydalgan holda ishlab chiqarish jarayonlari monitoringi va sifatini baholash mexanizmlarini ishlab chiqarish), ilmiy-tadqiqot (dinshunoslikka oid turli tadqiqotlarni amalga oshirish, ular bilan bog'liq amaliyotlarni o'tkazish, ilmiy-tadqiqot ishlanmalarini tayyorlash, diniy adabiyotlar ekspertizasini amalga oshirishda qatnashish, natijalarini amaliyotga tatbiq etish hamda dinshunoslikka oid adabiyotlarni ekspertiza qilish tartib-qoidalarini ishlab chiqishda qatnashish), axborot-tahliliy (faoliyat yuritayotgan tashkilotida jamiyatda kechayotgan diniy jarayonlarga oid ichki axborot tizimini yaratish), ma'naviy-ma'rifiy va pedagogik (diniy konfessiyalarning faoliyati, globallashtirish sharoitida kechayotgan jarayonlarda dinlarning o'rni va ta'siri haqida

tushuntirish ishlarini olib borish, mahallalarda liniy ma'rifat va ma'naviy-axloqiy tarbiya masalalari bo'yicha individual suhbat o'tkazish) sohalariga doir malaka talablari belgilab berilgan bo'lib, bo'lajak dinshunoslarda kasbiy sifatlarni rivojlantirishga doir belgilangan kompetensiya elementlariga erishish maqsad qilindi.

Vazifa komponenti kredit-modul tizimida ta'lim olayotgan Dinshunoslik ta'lim yo'nalishi talabalarining kasbiy sifatlarini rivojlantirishning pedagogik-didaktik imkoniyatlarini aniqlashtirish; ularning kasbiy sifatlarini mazmun jihatidan asosiy kategoriyalarga (ishchanlik, tadqiqotchilik, axborot-kommunikativ va insonparvarlik) bo'lib o'rganish; Dinshunoslik ta'lim yo'nalishi talabalarining kasbiy sifatlarini xorijiy til ta'limi jarayonida kompetensiyaviy yondashuv asosida rivojlantirish modelini takomillashtirish; ularning kasbiy sifatlarini rivojlantirish mazmuni, metod va vositalaridan foydalanishni takomillashtirish va bosqichma-bosqich rivojlantirishga yo'naltirilgan dastur, mashqlar tizimi va o'quv qo'llanma yaratish bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqishni o'z ichiga oldi.

Invariant blokda mashg'ulotlarni tashkil qilishning pedagogik va tashkiliy maqsadlarini o'z ichiga olgan bo'lib, dinshunolarning kasbiy sifatlari 1.1-§ da eslatilib o'tilgan Dj.Raven, N.Xomskiy, A.V.Xutorskoy, I.A.Zimnyaya, V.A.Bolotov, B.X.Xodjayevning fikrlariga tayanib, kompetensiyaviy yondashuvga asoslanib ishlab chiqilgan texnologiya va kasbiy sifatlarni rivojlantirish usullari ochib berilgan.

Yondashuv komponenti modelning invariant blokining boshlang'ich komponenti sifatida qaraladi. Bu bosqichda bo'lajak dinshunos talabaning kasbiy sifatlarini rivojlantirish uchun foydalaniladigan zamonaviy ta'lim texnologiyalari ta'lim jarayonining barcha ishtirokchilarining muvaffaqiyatli ishtirokini ta'minlaydigan ta'lim muhitini yaratish uchun eng samaralisi, deya hisoblandi.

Texnologiya komponenti ushbu sifatlarni shakllanishiga ko'maklashuvchi to'rt yondashuv (maxsus bilim va ko'nikma, talabaning darsdagi ishtiroki bo'yicha aniq kriteriy, shaxsga yo'naltirilgan, individual yondashuv va o'quv motivatsiyasi)ni qamrab olgan. Ushbu texnologiyalarning mohiyati shundaki, talabaning mashg'ulot va auditoriyadan tashqari mustaqil ta'lim vaqtida o'z ustida ishlashi mavzuning mohiyatini to'liq tushinish bilan bir qatorda kasbiy sifatlarni o'zlashtirishga xizmat qiladi.

Usul komponenti. Tadqiqotning vazifasiga erishishda kompetensiyaviy yondashuv taqdim etadigan usullardan foydalanib mashg'ulot olib borish ahamiyatlidir. Ma'lumki, talabalarining yozma nutqini rivojlantirish tahlil qila olish salohiyatini shakllantirish, tanqidiy fikrlash (blog yozish, internet forumida qatnashish), ijodiy izlanish (loyihalar), muloqot (guruh va jamoa bo'lib ishlash), sinchkovlik, mustaqil fikr bildira olish, izlanishlarni talab etadigan jarayon hisoblanadi. Talaba o'z tengdoshlaridan yuqori va o'ziga xos kreativ javob topishga harakat qiladi.

Mazmunli blok modelning nazariy va uslubiy ta'minotini o'z ichiga olgan. V.V.Serikov, I.S.Yakimanskaya, D.A.Shayzakovaning shaxsga yo'naltirilgan ta'lim tamoyillari haqidagi g'oyalari asos qilib olindi. Ushbu metodologik komponent kasbiy sifatlarni rivojlantirishni pedagogik shart-sharoitlarni, yondashuv va tamoyillarni, ta'limning mazmun mohiyatini ham aniqladi.

Metod komponenti mashg'ulotning taqdim etilgan mazmunini o'quv faoliyatida aynan didaktik tizim sifatida tashkil etishdagi metodlarni qay yo'sinda amalga oishishini ko'rsatadi, o'quv faoliyati motivning mavjudligi, mashg'ulot rejasi, uning bajarilish bosqichlari va nazoratini o'z ichiga oladi. Kasbiy sifatlarni rivojlantirishda innovatsion va ayni damda interfaol o'qitish metodlaridan, demonstratsion, muhokama, raqamli platformalar, onlayn korporalar bilan ishlash kabilardan foydalanish talabalarning o'quv-tarbiya jarayoniga bo'lgan munosabatini ijobiy tomonga o'zgartirishi aniqlandi.

Vosita komponenti. Dinshunoslarning kasbiy sifatlarini rivojlantirish bo'yicha talabalardan olingan so'rovnomalar, ularning talablar tahlili shuni ko'rsatadiki, XXI asr soha vakillariga an'anaviy vositalar (referat, poster va esselar) orqali mashg'ulot olib borish samarali deya topilmaydi. Onlayn autentik materiallar, raqamli o'yinlar, mobil telefonlar orqali egallangan bilimlarni baholash ularning individual yoki guruhlarda belgilangan vaqt davomida, ma'lum mavzu bo'yicha axborot yig'ish, tadqiqot o'tkazish va egallangan bilimni amalda ko'rsata olish imkonini beradi.

Didaktik ta'minot komponenti. Kompetensiyaviy yondashuv talablariga mos klavchlar mashqlar to'plash, ishlab chiqish va ularni amalda qo'llash tadqiqotimizning vazifalaridan biri. Dinshunoslik va Tarix (islom manbashunoligi) yo'nalishi talabalari uchun mo'ljallangan o'quv qo'llanmalar orqali didaktik ta'minotga erishildi.

Natijaviy blok umumiy didaktik modelning uch bloki bilan uzviy bog'liq bo'lib, DTS va malaka talablarida belgilab berilgan talablarni amalga oshirish bosqichlarining samarasi hisoblanadi. Talabaning kasbiy sifatlarni qay darajada egallaganini ko'rsatib beruvchi ikki komponentdan tashkil topgan.

Baholash mezonlari komponenti insonparvarlik, ishchanlik, axborot-kommunikativ va tadqiqotchilik kabi kategoriyalarni o'z ichiga olib, ularni rivojlantirishda xorijiy til (ingliz tili) dars mashg'ulotlarining roli va imkoniyatlari, fanlararo integratsiya masalasi yoritilgan.

Baholash darajalari komponenti uch bosqichdan iborat bo'lib, talabaning egallagan bilim va rivojlantirgan kasbiy sifatini amalda qo'llay olish darajasi bilan o'lchanadi. Ular: produktiv – talaba o'z faoliyatini tahlil etadi va egallagan kasbiy sifatlar borasidagi ko'nikmasining natijalarini bayon qiladi. Kelajakdagi kasbiy faoliyatidagi o'sishda o'z oldiga vazifalarni qo'ya oladi. Kreativ – talabada shakllangan kasbiy sifatlar borasida o'zini o'zi nazorat qila olishi, xatolarini tuzatishi, tanqidiy baholay olish salohiyatini o'z o'zicha oladi. Refleksiv – talabada kasbiy sifatlar shakllangan va uni namoyon qila olish salohiyatiga ega. Shu bilan birga, murakkab muammoli vaziyatlarda qaror qabul qila oladi, o'zining mustaqil fikriga ega.

Dinshunos talabaning kasbiy sifatlarini rivojlantirish uchun foydalaniladigan zamonaviy ta'lim texnologiyalarini tahlil qiladigan bo'lsak, ulardan mashq va topshiriqlarga asoslangan yondashuv (Task-Based Approach), bunda olib boriladigan mashg'ulotning asosiy ta'limiy maqsadi mashqlar asosida amalga oshiriladi; loyiha metodlariga asoslanib o'qitish (Project -Based Approach), talabalarga amaliy yechimlarni loyihalash va ishlab chiqish uchun keyslar, muammolar taqdim etiladi. Leksik minimumga asoslangan ta'lim (Lexical Syllabus- based learning), talabalardan olingan talablar tahlili (needs analysis) natijasiga asoslanib, ularning

o'zlashtirishi lozim bo'lgan leksik minimum asos qilib olinadi. Mobil telefon ko'magida til o'qitish – Mobile Assisted language learning Smartfonlar taqdim etayotgan funksiyalaridan ta'limiy maqsadlarni amalga oshirish nazarda tutiladi. Ushbu ta'lim turida onlayn/offlayn lug'atlar, grammatik mashqlar to'plamidan tashkil topgan mobil ilovalar, til ko'nikmalarini rivojlantiruvchi mobil dasturlar yordamida talabalarning chet tilini samarali o'qitishni tashkil etish imkoniyati mavjud.

Yuqorida keltirib o'tilgan yondashuvlar asosida an'anaviy va innovativ metodlar yordamida dinshunoslarning kasbiy sifatlarini rivojlantirish imkoniyati keltirib o'tiladi (1- va 2- jadvallar).

1-jadval

An'anaviy metodlar

| An'anaviy metodlar | |
|--|--|
| Metod nomi: | Tavsifi |
| Shaxsga yo'naltirilgan ta'lim metodi (Learner- centered method) | Talaba ushbu metodda faol agent vazifasida ishtirok etadi. U o'zining egallagan ko'nikmalari, olgan ta'limi, tajribasi va g'oyalariga asoslanib mashg'ulotlarda ishtirok etadi. |
| Kontentga asoslangan metod (Content-focused Method) | Talabalarni qiziqtirgan mavzu yuzasidan dars olib boriladi, o'rganilayotgan chet tili vosita sifatida qo'llanadi va ularning lingvistik mahorati grammatik mashqlar bilan emas, mavzuga doir mashg'ulotlar orqali oshiriladi. |
| Interfaol metodlar (Interactive Methods) | Audio, video, amaliy mashg'ulotlar orqali "talaba - o'qituvchi, o'qituvchi - talaba, talaba - talaba" shaklida olib boriladigan dars mashg'uloti. Odatda aqliy hujum (onlayn vositalar yoki an'anaviy) uslubidan boshlanib, juft yoki guruh bo'lib ishlab, muhokama, muammmoni aniqlash, tashxislash, yechim topish kabi bosqichlarga bo'linadi. |
| Muhokama metodi The Discussion Method | Talabalar tengdoshlarining fikrlarini tinglashga va ushbu ikki tomonlama muloqot uslubida fikr almashadi. Pedagogning vazifasi talabalarni guruh muhokamasi taktikasi bilan tanishtirish, va qolaversa mavzuni chuqurroq o'zlashtirishga ko'maklashishdan iborat bo'ladi. |
